

**O'ZBEK DRAMALARIDA UCHROVCHI PAREMIYALARNING
LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Sherbekova Madinabonu Shavkat qizi

Ilmiy rahbar: F.f.b.f.d (PhD)

Niyazova Gulnora Gulyamovna

Annotatsiya: Bugungi kunda sof lingvistik, folkloristik va empirik yondashuvlar bilan bir qatorda, maqol va matallar fani sohasidagi mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda kognitiv tilshunoslik va nutq nazariyasi kabi fanlarning yutuqlari faol ravishda joriy etilmoqda. Tilshunosning vazifalari, shubhasiz, tilning rolini aniqlash va uning inson faoliyatining turli turlariga ta'sirini o'lchashni o'z ichiga oladi. Kognitiv yondashuv doirasida til kognitsiya bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi, ya'ni. inson tomonidan ma'lumot olish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida uning rolini tushuntirishga urinishlar qilinmoqda.

Dramatik adabiyotning boy bisotida maqollar hikoya nomli matoga g'ayrioddiy tarzda to'qilgan yorqin iplar bilan tikilgan naqshga o'xshaydi. Ushbu maqollar o'zbek madaniyatidagi donolik, qadriyatlar va an'analarini o'zida mujassam etgan bo'lib, drama va spektakllarda personajlar, mavzular va madaniy kontekstni tasvirlashning asosiy elementlari bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bo'lim o'zbek tilida yozilgan dramatik asarlardagi maqollarning ko'p qirrali rolini o'rganadi, ularning sahna va ular tasvirlayotgan xalqning madaniyati o'rtasidagi tafovutni bartaraf etuvchi lingvistik vositalar sifatidagi ahamiyatiga oydinlik kiritadi.

Maqollar turli madaniyatlar va davrlarda aks-sado beradigan universal haqiqatlar va axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Dramatik pyesalarda maqollar mavzular va axloqiy maqollarni etkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi, rivoyatga ahamiyat va rezonans beradi. Sevgi, xiyonat yoki qutqarish mavzularini o'rganayotganda, dramaturglar asosiy motivlarni ta'kidlash va ularning qahramonlari duch keladigan axloqiy dilemmalarga oydinlik kiritish uchun tegishli maqollandan mohirona foydalanadilar. Tanish maqollarni takrorlash va qayta ko'rib chiqish orqali tomoshabinlar dramatik hikoyaning chuqurroq ma'nosi va uning axloqiy jihatlari haqida o'yashga taklif qilinadi.

Yozuvchilar o'z asarlarida paremialardan unumli foydalanish bilan bir qatorda asar ruhiga moslagan holda qisman o'zgartiradilar, shu yo'l bilan maqollarning yangicha kognitiv ma'nosini yaratadilar. Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Said Ahmad va boshqa tomonidan ijod qilingan paremialar bunga misol bo'la oladi. Shu

yo‘l bilan iboralar yaratadilar. Ibora bu biror tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi hisoblanadi

Masalan, quyidagi maqollar Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni asaridan olingan bo‘lib, Bashorat kelini har doim gapga chechanligi va nutqida juda ko‘p xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilgani uchun dramada juda muhim ro‘l o‘ynaydi¹. Gapning dangalini aytib o‘rgangan qaynonasi Anzrat buviga esa kelinining har safar bir narsa so‘rash kerak bo‘lsa maqol ishlatsi va qaynonasi oldida naqadar ustomonlik bilan ularni qo‘llashi yoqmaydi.

Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim

Bu maqolda biror kishiga qarz berib sòngra qarzini ola olmasdan yurgan kishilarga nisbatan aytilgan

Bor tovoğim, kel tovoğim, bormasang, kelmasang örtada sin tovoğim

Bu maqolda tòy-hasham yoki ma'rakalarda xotin-qizlarning bir-birlariga oldi-berdi qilishlari va berilgan tuhfaning albatta qaytib kelishi haqida aytilgan

“Eskini yamaguncha esing ketadi” bu maqolda eskirgan narsalardan qayta foydalanish qiyinligi, uni yaxshi holatga keltirguncha ancha mashaqqatlar chekishligi haqida aytilgan

Bunaqada tilladan toğing bòlsa ham yemirilib bitadi

Bu maqolda insonlar mol-dunyosini öylamasdan bekorchi narsalarga sarflab yuborishi nazarda tutilgan

Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak deganlaridek...

O‘zida biroz kinoyani mujassam etgan bu maqolning zamirida ajoyib ma‘no yashiringan. Inson umri davomida unda turli ehtiyojlar paydo bo‘ladi. Yashashi uchun bu ehtiyojlarni qondirishi darkor. U hayot ekan unga moddiy buyumlar hamisha kerak bo‘ladi. Hatto so‘ngi manzili oldidan ham. Yuqorida maqolning zamirida aynan shu: inson moddiyatga bog‘langanligi yoritilmoxda. Bu yerda tovuq, bir inson o‘rnida ishlataladi .

Do‘s t boshga dushman oyoqqa qaraydi.

Bu maqolning ma‘nosi do‘sting seni ichki dunyong uchun yaxshi ko‘radi. Unga seni boyliging kerak emas. Dushmaning esa qanday kiyiganliging bilan qiziqadi. Agar mablag‘ing kamaysa, sendan voz kechadi va ortingdan ish qiladi degani

E.Vohidov asarlari turli tadqiqotlarda u yoki bu yo‘nalishda o‘rganilmoqda. Ammo shu kunga qadar ijodkorning “Oltin devor dramasi”ning pragmatik jihatni tadqiq etilgan emas. Ma’lumki, presuppozitsiya matnda yo‘qolmaydigan, o‘zgarmaydigan hodisa bo‘lib, u asosan, gapda aks etgan asosiy propozitsiya ustiga quriladi va uni semantik jihatdan to‘ldiradi.

Erkin Vohidovning “Oltin devor” dramasida bir qancha paremiologiyalardan

mohirona foydalangan yozuvchi. Bulardan biri ikki qudaning to‘y maslahatini kimning uyida qilishni rejalashtirishayotgan payti ishlatiladi:

Sichqon sig ‘mas iniga, g ‘alvir bog ‘lar dumiga- o‘zi kichkina hayvon bo‘lsa ham, dumiga g‘alvirdek katta narsa bo‘ylab olish sichqonga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilishining boisi shuki, Mo‘minning Abdusalomning hovlisi kichkinaligiga ishora qilganidir. Abdusalom hovlisi to‘y qilguli kichkina bo‘lsa ham yolg‘iz qizi Diloromni orzu-havaslik katta to‘y qilib, hovlisiga mahalla-ko‘y va yor-u birodarlarini chaqirib qizini uzatmoqchi bo‘ladi. O‘zbek xalqining ushbu maqoli juda ustamonlik bilan kontekstda qo‘llanilishi orqali inson tashvishli vaziyatga tushganda keraksiz xarakatlar qilishiga ishora qilingan. Bunda Abdusalomning xovlisi kichkina bolsa ham, to‘y oldi juda ko‘p odamni chaqirmoqchiligidagi, bitta to‘y uchun ortiqcha narsalarni quad tomonidan so‘raganiga achchig‘i kelgan Mo‘min tomonidan ishlatiladi.

Nima qilasan meni qiy nab? Men axir Saidmalik zargar emasmanki, bunaqa narsalarga kuchim yetsa. Behuda zo ‘rlik umurtqani sindiradi degan gap bor.

Ushbu maqol o‘zbek tili maqollarining durdonalaridan bo‘lib, insonning kamtar bo‘lishi kerakligi haqida, haddan ortiq chiranish, baland dorga osilib inson nafaqat vaqtin, kuchi, moliyaviy xarajatlari, balki sog‘ligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Mol egasi og ‘ziga siqqanini so ‘raydi, savdoni haridor pishitadi.

O‘zbek xalqi madaniyatiga xos savdolashishdek juda ajoyib xususiyat bor. Savdogar yoki mol egasi bozorga molni olib chiqqanda o‘zi xohlagan narxni qo‘yadi, chunki haridor baribir savdolashib o‘ziga ma’qul narxda sotib oladi. Chet eldagagi kabi aytilgan narxda sotib olish bizning o‘zbeklarga xos emas. Ushbu maqol o‘zbek xalqining savdolashish madaniyatida tortishish, bahslashish, so‘z o‘yini, ikki tomonning ham birday manfaatdor bo‘lishi uchun uni ishlatish nazarda tutilgan.

O‘xshatmay uchratmas deb shuni aytadilar.

Bu maqolda milliy qadryatlardan tashqari diniy tushuncha ham yotadi. Alloh taolo insonlarni erkak va ayol qilib, ya‘ni juft yaratganligining hikmati.

Alloh taolo Qur‘oni Karimning «Rum» surasining 21-oyatida shunday bayon qiladi: «Uning oyatlaridan (yana biri) sizlar taskin topishingiz uchun o‘zlariningizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir». Darhaqiqat, ushbu maqol har bir yaratilgan juftliklar ertamki-kechmi bir-birlarini topishiga ishora qiladi.

Yo ‘q, har bir insonga bir uy, bir go ‘r, deganlar mashoyixlar.

"Yo‘q, har bir insonga bir uy, bir g‘o‘r, deganlar mashoyixlar" maqolinining ma’nosi har bir inson o‘zining yashaydigan uyida bir umr yashashi hamda o‘lgandan so‘ng uning qabri ham faqat bitta bo‘lishi aytilgan.

"Na ishkim boshlading, tavsallamay hech bugun qil, ertaga bo‘lishidir kech".

"Bugungi ishni ertaga qo‘yma", "Qolgan ishga qor yog‘ar " maqollariga sinonim bo‘lgan maqollardan biri hisoblanadi yuqoridagi maqol. Agar bugungi ishingni ertaga qoldirsan, ertaga kech bo‘ladi degan ma’nonda.

«*Na ishkim boshlading, tavsallamay hech bugun qil, ertaga bo‘lg‘usidir kech».*

Farishta yaxshi gapga ham, yomon gapga ham «omin» deydi.

— *Tilla tish? O‘zlarigami? Obbo qo‘shni-ey. Tuya hammomni orzu qilibdi-da*

"Tuya hammomni orzu qilibdi" maqolining ma’nosи katta hoyu-havasga berilmaslik, katta gapirmaslik va bularning hammasi puchga aylanishi haqida.

Yolg‘onni eplagan odam gapirsin.

O‘zbeklarda bir maqol bor :"Yolg‘onni eplagan odam gapirsin",-degan.

Yolg‘on gapirish hammaga ham emas.Kasalni isitmasi oshkor qiladi degandayin, yolg‘on gapirgan odamning ham yuzi va ko‘zi uni fosh qilib qo‘yadi. Uni faqat o‘ta shum bo‘lganlargina hech qanday tana o‘zgarishlarisiz gapira oladi.

Shunday qilib, paremiyalar va hikmatli so‘zlar semantik va tarkibiy xususiyatlari bilan ajralib turishiga asoslanib, biz maqollar, iboralar va aforizmlatr orasidagi tafovutni ajratishimiz kerak. Bir tilning paremialar qatlami o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning urf-odatlari-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta’sirchan va bo‘yoq dor iboralar o‘sha xalq nutqining ko‘rki, tilining boyligini ifodalovchi omildir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Х.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий эстетик функциялари: Филол. фан. номзоди ...дис. Т., 2005. – 152 б.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Toshkent, 2008
3. A.Qahhor “O’g’ri”, 1948
4. O’ZBEK XALQ MAQOLLARI – ZiyoUz, uzbek_xalq_ogza ki_ijodi/T.Mirzayev, А... · 2013-11-11 · 1988), A. Naumov (1985)
5. Said Ahmad, „Kelinlar qo‘zg‘oloni“ (1976)